
TOSHLOQDA EHTIYOJMAND XOTIN-QIZLARGA TIKUV MASHINALARI TOPSHIRILDI

Toshloq tumanida "Ayollar daftari" hamda "Yoshlar daftari"ga kiritilgan xotin-qizlar bandligini ta'minlash, ularning doimiy daromad manbaini shakllantirishga qaratilgan keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Bugun tuman hokimi Abduqahhor Djurabayev hamda tuman prokurori Shuxratjon Musayevlar ishtirokida tadbirkorlik qilish istagida bo'lgan ishsiz, ehtiyojmand xotin-qizlarga hokim yordamchilari tavsiyasi bilan subsidiya asosida 15 ta tikuv mashinasi, 3 ta turli konditer mahsulotlari pishiriladigan jihozlar berildi. Tadbirda tuman hokimi Davlatimiz rahbari tomonidan xotin-qizlarga yaratib berayotgan imkoniyatlaridan oqilona foydalanishlari, tikuvchilik bilan doimiy shug'ullanib oilaviy daromadlarini oshirishlari, ustoz-shogird tamoyili asosida yoshlarni ham kasbga o'rgatishga ko'maklashishlarini ta'kidlab o'tdi.

2023-12-01 11:15:00